

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY | 2024

ISSN: 2181-4031



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ- II, НОМЕР-2

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ – 2024

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2024-2>

Бош муҳаррир:

Тураев Б.

– фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д.

– иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент
2. Ходжаметова Гулчира Илишевна – тарих фанлари номзоди, профессор
3. Ҳайдаров Ўрал Ахмадович – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD), доцент
4. Мусаев Джамалиддин Камалович – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент
5. Жамолдинов Хумоюн Бахтиёрбек ўғли – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент в.б
6. Узакова Зарина Фуркатовна – социология ф.б.ф.д (PhD), доцент
7. Мамадияров Дилшод Уралович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент
8. Тўраев Шавкат Нишонович – фалсафа фанлари номзоди, доцент
9. Бердиева Гулмира Аминовна – тарих фанлари номзоди
10. Гаипов Жасур Бахром ўғли – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD)
11. Сохибова Лола Жонибоевна – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
12. Шарипов Дилшод Бахшиллоевич – сиёсатшунос, эксперт
13. Содиржонов Мухриддин
Махамадаминович – социология ф.б.ф.д (PhD)
14. Саттаров Дилшод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент
15. Турақулов Акмалжон Анварович – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
16. Каримов Бозарқул Худдайбердиевич – фалсафа фанлари номзоди

“Фундаментал тадқиқотлар” илмий-амалий журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.5 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

INAMOV Qodir Tursunovich*Namangan davlat universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası
katta o‘qituvchi***RUSTAMALIEV Mirjalol Hayrullo o‘g‘li***Namangan davlat universiteti
“Ijtimoiy fanlar”
fakulteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10633500>*

G‘ARB VA SHARQDA BOLA TARBIYASINING PEDAGOGIK JIHATLARI

ANNOTATASIYA

Hozirgi kunda dunyo shunchalar tez rivojlanish bosqichiga kirdiki, sun’iy ong inson mehnat maxsulining asosiga aylanib bormoqda. Zamonaviy dunyo o‘zi tarbiyalagan farzandlarini mevasini ko‘rmoqda. Garbiy Yevropa, Yaponiya, AQSH va bir qancha davlatlar yoshlarga bergan tarbiyasi va investitsiyasi bu mamlakatlarni dunyodagi yetakchi davlatlarga aylantirdi.

Bolaning tarbiyasi juda ham nozik va jiddiy masala bo‘lib, kelajakda ularning qanday odam bo‘lib yetishishi mamlakatning bevosita iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy rivojini belgilab beradi. Shunday ekan, har bir xalq o‘z kelajagini o‘ylab farzandlari tarbiyasida o‘ziga xos tarbiya usullarini ishlab chiqqan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, global dunyo, intellektual, ikudzi, ota-ona qo‘mitasi, flomaster, amae, konstruktor, zamonaviy dunyo, mukammal inson, axloqiy tarbiya.

ВОСПИТАНИЕ РЕБЕНКА НА ЗАПАДЕ И ВОСТОКЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

АННОТАЦИЯ

В настоящее время мир вступил в стадию столь стремительного развития, что искусственное сознание становится основой продукта человеческого труда. Современный мир видит в детях, которых он вырастил, плоды. Воспитание и инвестиции, которые Западная Европа, Япония, США и несколько стран дали молодежи, сделали эти страны ведущими странами мира.

Воспитание ребенка-дело очень деликатное и серьезное, и от того, каким человеком он вырастет в будущем, напрямую зависит экономическое, политическое, социальное, культурное и духовное развитие страны. Таким образом, каждый народ разработал свои собственные методы воспитания в воспитании своих детей, думая о своем будущем.

Ключевые слова: воспитание, глобальный мир, интеллектуальный, икудзи, родительский комитет, фломастер, amae, konstruktor, современный мир, совершенный человек, нравственное воспитание.

RAISING A CHILD IN THE WEST AND EAST PEDAGOGICAL ASPECTS

ANNOTATION

Currently, the world has entered a stage of such rapid development that artificial consciousness is becoming the basis of the product of human labor. The modern world sees fruits in the children it has raised. The education and investments that Western Europe, Japan, the United States and several countries have given to young people have made these countries the leading countries in the world.

Raising a child is a very delicate and serious matter, and the economic, political, social, cultural and spiritual development of the country directly depends on what kind of person he will grow up to be in the future. Thus, each nation has developed its own methods of education in the upbringing of their children, thinking about their future.

Keywords: education, global world, intellectual, ikuji, parent committee, felt-tip pen, amae, designer, modern world, perfect man, moral education.

Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Bugungi bolakayning ertaga qanday inson bo'lishi ko'p jihatdan bolalik deb atalgan bu davrning qanday o'tgani, uning ongi va qalbiga atrof-muhitdan nimalarni olib kirganiga bog'liqdir [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: - "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" [2].

Rivoyat qiladilarki, bir ona donishmand oldiga kelibdi va bolasining tarbiyasiga qachon kirishish kerakligi haqida surabdi. Donishmand bolaning necha yoshga kirganini so'rabdi. Besh yoshga to'lganini bilib onaga xitob qilibdi:

- Tezda uyga qayt!

Bola tarbiyasida eng kerak bo'lgan besh yilni sen boy berib qo'yibsan! Shunday, bola dastlabki yillarda tez va ko'p qabul qiladi va tarbiyaning asosiy qismini qabul qiladi. Tarbiya keyin ham davom etaveradi. "Lekin siz mevani keyin ko'ra boshlaysiz, - deydi bir donishmand - bu o'zingiz bir vaqtlar, bolangiz besh yoshigacha bergan tarbiyangiz gulining mevasidir" bu davrda bolaning olamni bilishi odamni bilishi orqali kechadi. Yaxshilik va yomonlik degan katta tushunchalar ota va onasining bir-biriga munosabati, ovozi, qarashi, harakati orqali borligiga singib boraveradi.

Donishmandlar kishi keyin umr bo'yi o'zi yashaydigan yaxshilik va yomonliklarning qariyb 90% ni aynan bolalikning ilk davrida olishini, besh yoshli bala bilan keksalik o'rtasi bir qadam ekanligini tan olishadi [3].

Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga e'tibor berishga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi kunda dunyo shunchalar tez rivojlanish bosqichiga kirdiki, suniy ong inson mehnat maxsulining asosiga aylanib bormoqda. Zamonaviy dunyo o'zi tarbiyalagan farzandlarini mevasini ko'rmoqda. Garbiy Yevropa, Yaponiya, AQSH va bir qancha davlatlar yoshlarga bergan tarbiyasi va investitsiyasi bu mamlakatlarni dunyodagi yetakchi davlatlarga aylantirdi.

Bolaning tarbiyasi juda ham nozik va jiddiy masala bo'lib, kelajakda ularning qanday odam bo'lib yetishishi mamlakatning bevosita iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy rivojini belgilab beradi. Shunday ekan, har bir xalq o'z kelajagini o'ylab farzandlari tarbiyasida o'ziga xos tarbiya usullarini ishlab chiqqan.

Besh yoshgacha farzand - poshsho, o'n besh yoshgacha - qul, o'n besh yoshdan keyin - do'st! Yaponlardan juda ko'p narsani o'rganish mumkin. Ayniqsa, bu kungaboqar davlatning farzandlariga tarbiya berish usullari ko'pchilikni hayratga solib kelgan. Ularning tarbiya berish usuli "ikudzi" deb nomlanib, bu faqat pedagogik ta'lim berish majmui bo'libgina qolmay, yangi avlod ta'lim olishiga yo'naltirilgan falsafadir!

Yaponiyaliklar 5 yoshgacha bo'lgan kichkintoyga qiroldok muomala qilishadi. Ular istaganlaricha o'ynashlari, miyasiga kelgan ishni qilishlari mumkin. Hattoki bolalar bog'chalarida bolakaylar flomaster bilan devorga to'ygunlaricha chizishlari uchun maxsus xonalar mavjud. Ota-onalar o'z farzandlarini o'yinchoqlar va ortiqcha kiyim-kechak bilan siylashmaydi. Ular ko'pincha akalari va opalaridan qolgan kiyimlarni kiyishadi. Sayrga chiqqanda esa o'yinchoqlar olib chiqilmaydi. Bolalarda atrof-muhitga bo'lgan mehrni shakllantirish maqsadida tabiat in'omlari bilan rivojlantiruvchi o'yinlar o'ynashga harakat qilinadi.

Agarda ona o'z farzandining xatti-harakatidan norozi bo'lsa, chetga olib chiqib, past ovozda unga o'zini qanday tutish kerakligini tushuntiradi. 5 yoshdan 15 yoshga qadar kichik yaponiyaliklarni tartib-intizomga va kattalar gapini ikki qilmaslikka o'rgatishadi. Tarbiyaga bunday yondashuv asrdan asrga o'tib kelayotgani va Yaponiya jamiyatining ajralmas bo'lagi bo'lganligi bois bolalar buni me'yordagi holat sifatida qabul qilishadi.

Maktabning o'quv dasturiga esa, albatta, kuzatuv darslari kiritilgan. Unda o'quvchilar tabiat qo'yniga chiqib, tirik tabiatni kuzatish, his etish, eshitish, asrashni o'rganishadi. Bu o'z navbatida fuqarolarni yoshligidanoq Yaponiya tabiatini asrab-avaylashga o'rgatadi. 15 yoshdan so'ng esa o'smirlarga teng huquqli fuqaro sifatida qaraladi. Maktabda har bir boshlang'ich sinf o'quvchisini yuqori sinf o'quvchilari otaliqqa olishadi. Kichik sinf o'quvchilarining tushligi sinfga olib kelib beriladi, ularning muammolarini "Ota-ona qo'mitasi" hal qiladi. O'rta maktabda o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablar kuchayadi.

Bolalar ertalabki darslarni madhiya aytishdan boshlashadi. Yildan yilga o'tiladigan fanlar soni ko'payib boradi. Maktabda ota-onalar yig'ilishi qilinmaydi. O'qituvchi har bir ota-ona bilan muloqot vaqtini belgilaydi va mazkur uchrashuv 15 daqiqadan oshmaydi. Yana bir jihat. Mamlakatda onalarning bola tarbiyasidan ajralmagan holda qo'shimcha bilim olishiga katta e'tibor beriladi. Maqsad ular tarbiyasida bo'lgan farzandlarining kelgusida har jihatdan komil inson bo'lib yetishishlaridir. Aytish joizki, Yaponiya bugungi kunda yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilikning kamligi va insonlarning hayot farovonligining yuqoriligi bilan dunyoda yetakchidir. Albatta, bunda tarbiyaning roli juda ham kattadir.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi erkinlik bola tarbiyasida ham o'z aksini topgan. Onalar farzandlarining har soniyalik qiziqishlari va injiqliklarini qondirishga tayyordirlar. Aksariyat bolalar 4-5 yoshlarida o'yinchoqlarning barcha turi bilan tanishishadi, ko'pincha amerikalik oilalarning garaj va omborxonalarini bir marotaba o'ynalgan o'yinchoqlar bilan to'lib-toshadi. Ikkinchi tomondan, go'dakligidanoq amerikalik bolakaylar "Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisani", degan so'zlarni har kuni eshitgan holda o'sishadi. Maqsad – mustaqil insonni tarbiyalash! Agarda bola xato qilsa, uni urushmay: "Yana bir marotaba harakat qilib ko'r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo'rsan!" deya qo'llab-quvvatlanadi. Albatta, bunday yondashuv kelgusida o'zining mevasini beradi.

Yevropa mamlakatlarida bolalarning yetuk shaxs bo'lib rivojlanishlari uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi. Ota-onalar intizom yoki qat'iy rejimga kam e'tibor berishadi. Ular uchun bolaning xavfsizligi birinchi o'rinda turadi. Kattalar bolalarning fikrlariga quloq solib, aksariyat holda o'z fikrlarini o'zgartirishlari ham mumkin. Yevropalik hamda amerikalik ota-onalarning fikriga ko'ra injiqliklariga erk berish orqali erkalash va nazoratning umuman yo'qligidir. Aslida, Yaponiyada ota-onaning hukumronligi G'arb mamlakatlariga nisbatan kuchliroqdir.

1994 yili Amerika va Yaponiya o'rtasida bolalarga tarbiya hamda bilim berish bo'yicha tafovut ilmiy-tekshirishi o'tkazilgan. Olim Azuma Xiroshi ikki xil madaniyat vakillari ona-bolasidan piramida-konstruktorini yig'ish shartini e'lon qildi. Natijada, tadqiqotchilar shuni guvohi bo'lishdiki, yapon ona avval konstruktorni o'zi yig'ib, buni o'z farzandiga ko'rsatgan. Keyin bolasidan o'zi - mustaqil ravishda yig'ib ko'rishini so'ragan. Bolaning qo'lidan kelmasa, ona yana bir marotaba yasab ko'rsatib bergan.

Amerikaliklar esa boshqa yo'l bilan yasagan. Ular konstruktorni yasashdan avval, uning yasalish algoritmini bolasiga tushuntirgan, so'ngra ona-bola konstruktorni yasashni boshlashgan.

Pedagogik usullarning sezilarli farqini Azuma ota-onalikning "tushuntiruvchanlik" turi deya sharhladi. Yani, yaponiyalik ayollar o'z farzandlariga muomala va ish-harakatlari orqali "tushuntirishadi". Shu bilan birga farzandlariga yoshligidanoq o'z hissiyotlarga, yaqinlari va hatto buyumlarga ham e'tiborli bo'lishni o'rgatishadi. Sho'x kichkintoyini hech qachon issiq choynak oldidan haydashmaydi, bolakay kuyib qolsa, "amae" undan uzur so'ragan holda ish-harakatlari unga og'riq yetkazganini eslatib qo'yadi.

Oilada katta yoki kichik narsa bo'lmaydi. Hamma narsa, hatto, eng oddiy bo'lib ko'ringan oilaviy munosabatlar ham bolaga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rostgo'ylik, samimiylilik, sadoqatlilik, shirin suxan bo'lish bola kamolotidagi zarur hayotiy vositalardan biridir.

Mutafakkirlarimizning bola tarbiyasi haqidagi qarashlari hozirgi kunda yosh oilalar uchun muhim manbaalar hisoblanadi. Farobiy bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: "Har kimki ilm xikmatni o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' - salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun - qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol - dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin".

Bu fikrlardan Farobiyning ta'lim - tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy - axloqiy tarbiyada aloxida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy - ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota - onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota - ona tarbiyachi bo'lishi mumkin.

Axloqiy tarbiyada eng muxim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama - yakkam suxbatga bo'lish unga nasixat qilishdir.

Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan o'zviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan bolab zarur tarbiyani olmog'i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o'zlariga xos xususiyatiga e'tibor berishni ta'kidlaydi. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning no'rin xatti - harakatlariga berilishining oldi olinadi [4].

So'ngi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda farzandlarini yaxshiylarcha kaltaklayotgan, olamga endigina mehr ko'zlari bilan boqayotgan bolani haqoratlayotganlarni ko'rib qolmoqdamiz.

Xo'sh, muntazam ravishda haqoratlarni eshitgan bola kelajakda kim bo'lib yetishadi? Ertaga tom ma'noda eshakdek tayoq yesa ham, indamay turadigan, o'z fikrini ayta olmaydigan, hayoti uchun kurashmaydigan bo'lib qolmaydimi, shaxs sifatida o'zini ko'rsata olmay, bor alamin ichiga yutib, ozgina bo'lsa-da, atrofdagilar tazyiqi, haqoratlarini unutish uchun spirtli ichimliklar ichib, cho'chqadek loyga ag'anamaydimi, o'zini inson sifatida emas, hayvondek his qilmaydimi?

“Baxtingni ko‘ray”, deyish o‘rniga “O‘ligingga kuyay”, deya qarg‘ash endigina hayotga qadam qo‘yayotgan jajji insonning hayot chizig‘i davomiyligini chegaralamaydimi? Bejiz dono bobolarimiz: “Yaxshi gapga ham, yomon gapga ham farishtalar “omin” deydi”, demagan. Har bir aytgan gapimiz, hattoki o‘ylagan o‘yimiz ham amalga oshmay qo‘ymasligini hayotning o‘zi isbotlamoqda. Afsus, asrlar davomida ildiz otgan, bola tarbiyasi borasida shakllangan qadriyatlar asta-ekinlik bilan yo‘qolib bormoqda.

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo‘ladi [5].

IQIBOSLAR. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent.: 2008. – B. 53.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi 78-umumta'lim maktabiga tashrif chog'idagi nutqidan.
3. <http://www.manaviyat.uz/post/view/228>
4. <http://ertaklar.uz/uz/sharq-mutafakkirlarining-farzand-tarbiyasi-haqidagi-fikrlari/>
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.: 2018. – B. 482.

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz